

L.V.BETHOVEN***Xujaqulov Damir Nosirovich***

Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani 20-umumiy o'rta ta'lim maktabi

oliy toifali musiqa fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu dars ishlanmada 6-sinf musiqa darsidan “L.V.Betxoven hayoti va ijodi” mavzusini o'qitish bo'yicha namunaviy dars ishlanmasi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: L.V.Betxoven, kompozitor, bastakor, nemis,

Dars maqsadi:

a) ta'limiy: o'quvchilarga L.V.Betxoven hayoti va ijodiy faoliyati haqida tushuncha berish, bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish.

b) tarbiyaviy: O'quvchilarni ona Vatanga bo'lgan mehrini oshirish va musiqiy madaniyatini shakllantirish.

s) rivojlantiruvchi: O'quvchilarning musiqiy bilimlari haqidagi bilimlarini rivojlantirish;

Tayanch kompetensiyalar:

O'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi: o'zini jismoniy va ma'naviy, ruhiy rivojlantirish, o'qib-o'rganishda turli to'garaklarga qatnashishi, qiziqishiga ko'ra o'zini namoyon qila olishi; Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi: mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, saqlash, ulardan samarali foydalana olish;

Dars turi; yangi bilim beruvchi.

Dars jihozi: darslik, mavzuga oid plakatlar, slayd, tarqatma materiallar, rasmlar,

Darsning uslubi:

Dars shiori:

Fan ko'ksida qil parvoz,

Qancha bilsang, shuncha oz.

1	Tashkiliy qism.	5 daqiqa
2	O‘tilgan mavzu va uyga vazifa so‘rash	10 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni.	10 daqiqa
4	Mustahkamlash.	15 daqiqa
5	Baholash.	3 daqiqa
6	Uyga vazifa berish	2 daqiqa

Darsning borishi:

Tashkiliy qism: o‘quvchilar bilan salomlashish, sinf tozaligiga e’tibor berish, davomatni aniqlash, o‘quvchilardiqqatini jalb etish.


Uyga vazifa va o‘tilgan mavzuni so‘rash: O‘tilgan mavzularni takrorlab olish. Tayyorlanib kelgan o‘quvchilardan so‘rab baholab boramiz.

“Rangli stullar” usuli. Bunda savollar osondan qiyinga qarab boradi. Oson savollar sariq stulga, o‘rtacha qiyinlikdagi savollar qizil stulga, qiyin savollar esa ko‘k stulga joylashtiriladi.

1. “Simfoniya” so‘ziga ta’rif bering.
2. Simfonik orkestr qaysi cholg‘u sozlaridan tashkil topadi?
3. Simfoniyaning tarkibiy qismlari haqida gapirib bering.
4. Simfoniya janrida ijod qilgan mashhur kompozitorlardan kimlarni bilasiz?
5. O‘zbek kompozitorlaridan kimlar simfoniya janrida ko‘proq ijod qilgan?

Yangi mavzu bayoni: darslik bilan ishlash.

Dunyo sana’t olamida maestro nomi bilan dong taratgan, mashhur nems kompozitori L. V. Betxoven 1770 yil 17- dekabrda Germaniyada tug‘ilgan. Uning bolaligi Reyn daryosi sohillarida qad rostlagan Bonn shahrida o‘tadi. Uning bobosi ham, otasi Logann ham ko‘p yillar mobaynida saroy musiqachisi va ashulachisi bo‘lib ishlashgan. Betxovenning oilasi kambag‘allikda kun kechirgan. Lyudvig va uning ukalari onasidan ancha erta ajraladi. Ota o‘g‘illariga nisbatan juda qattiqqo‘l, buning ustiga ichgilikka mukkasidan ketgan edi. Shu bois



Lyudvig juda ham kamgap, o'z hayollari bilan yuradigan va odamovi bola edi. Otasi Logann esa bolalarining musiqachi bo'lishini istamas edi. Shuning uchun ham yosh Lyudvig otasidan yashirincha skripka chalishni o'rganib oladi.



O'g'lining skripka chalishini tasodifan eshitib qolgan Logann avvaliga o'g'lini nihoyatda koyidi, so'ng Lyudvigning istedadli ekanini sezib, undan "ikkinchi Motsart" tayyorlamoqchi bo'ladi va shu orqali boyib ketish payiga tushadi.

Logann yosh Lyudvigga klavesen va skripkada chalishni mashq qildirib boshlaydi. Ammo uning olib borgan mashg'ulotlari asosan gamma mashqlarini chalishdan iborat bo'lar edi. Lyudvig eshitgan musiqalarini tezda mustaqil o'rganib olar va ko'p asarlarni yoddan chalar edi.



Oradan ma'lum vaqt o'tgandan so'ng, otasi Logann 1778-yilda 8 yoshli Lyudvigni jamoat oldiga birinchi bor chiqishini tashkil qiladi. Konsert muvaffaqiyatli yakunlanadi va yosh istedadli L. V. Betxovenning nomi xalq ichida mashxur bo'lib ketadi. Endi uni maxsus o'qituvchilar chaqirtira boshlashadi. Bu davrda Betxoven hayotida uning donishmand ustozlari Krestian Gotlip Nefe paydo bo'ladi. Organche Nefe bo'lajak bastakorga qadimiy tillar, falsafa, adabiyot, etikadan saboq berib hayotida muhim o'zgarishlarga sababchi bo'ladi. Otasi yosh Lyudvigni, eti sizga suyagi bizga deb ustoziga topshiradi va uning orqasidan pul topa boshlaydi. Biroq har gal bu pullarni ichkilikga sarflaydi. Kaltak va haqoratlardan yuragi zarda bo'lgan to'ng'ich o'g'il 1792-yilda Yevropaning musiqi markazi bo'lgan Vena shahriga ko'chib keladi. Bu yerda tez orada o'zining erkin va ta'sirchan yangi ijro uslubi bilan istedadli pianinachi, badixachi-improvizator sifatida taniladi. Muxlislar olqishiga sazovor bo'ladi. Venada 1795-1800-yillarda yaratgan fortepiano konsertlari, 8- "Patetik" fortepiano sonatasi, kvartetlari, 1- simfoniyasi, "Prometeyning yaratmalari" baletidayoq Betxovenga xos,


Buyuk Fransuz inqilobi g'oyalari ta'siri ostida shakllangan ijodiy uslubi ko'zga tashlanadi ...

L.Betxovenning “Qahramonlik” 3-simfoniyasidan parcha tinglanadi.

Yangi mavzuni mustahkamlash:

Shifokorlar Betxovenning qulog' og'irlashishiga uzoq vaqt tashhis qo'yaolmay, asablari charchaganini aytishdan nariga o'tisholmasdi, sababi kasallik o'tkazib yuborilgan edi. Shunga qaramay poytaxt aholisi uni olqishlar, avstryaliklar esa hatto buyuk Motsart ham fortepiano chalishda Betxovenning oldida ip esholmagan deb hisoblashardi.

“Tarmoqlash” usuli orqali mavzu mustahkamlanadi.



“Qo‘shimcha ma’lumot izlayman” usuli. Bunda mavzuga oid qo‘shimcha ma’lumotlar aytiladi.

-Kompozitor ijodida turli ingliz , venger, italyan, nems, polyak, rus, ukrain xalq kuylarini qayta ishlagan, Sharq mavzulariga murojat qilgan.

- Betxovenning 5-7-8-9-simfoniyalari, fortepiano va skripka konsertlari, bir talay fortepiano va skripka sonatalari, kamer ansambl va boshqa asarlari O'zbekistonda ham ijro etilgan.

-Mayestro qanchalik shon-shuhratga erishgan sari, eshitish qobiliyati shunchalik yomonlashib borardi.

“Bilim lotto” usuli. Bunda o'quvchilar tarqatmalardan savollar tanlaydi va savollarga javob beradi.

Betxoven qachon va qayerda tug'ilgan?

Lyudvig van Betxovenning ilk bolalik yillaridagi hayoti haqida so'zlab bering.

Betxovenning birinchi konserti haqida gapirib bering.

Betxoven oilasining nochor ahvoli uning ijodiga ta'siri haqida so'zlab

O'quvchilarni baholash, darsni xulosalash va baholash.

Darsda o'quvchilar ishtirokiga ko'ra baholanadi. Faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

Uyga vazifa: mavzuni takrorlab kelish.